

**METAFORALAR USLUBIY VOSITA SIFATIDA
(ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATI MISOLIDA)**

Nasiba Jumayevna Yarashova

Navoiy innovatsiyalar universiteti kafedrası professori v.b., f.f.d. (DSc).

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11084204>

Annotatsiya. Jozibali, ta'sirchan nutq har qanday kishini o'ziga jalb qiladi, hissiyot uyg'otadi. Tilimizda nutqning ta'sirchanligini oshirishda turli tasviriy vositalar va ko'chimlardan keng foydalaniladi.

Kalit so'zlar. metafora, metanimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik.

**METAPHORS AS METHODOLOGICAL TOOLS
(IN THE EXAMPLE OF ABDULLA ORIPOV'S POETRY)**

Abstract. An attractive, impressive speech attracts any person and evokes emotions. In our language, various figurative means and metaphors are widely used to increase the effectiveness of speech.

Keywords: metaphor, metonymy, synecdoche, task.

**МЕТАФОРЫ КАК МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЙ ИНСТРУМЕНТ
(НА ПРИМЕРЕ ПОЭЗИИ АБДУЛЛЫ ОРИПОВА)**

Аннотация. Привлекательная, впечатляющая речь привлекает любого человека и вызывает эмоции. В нашем языке широко используются различные образные средства и метафоры для повышения эффективности речи.

Ключевые слова: метафора, метонимия, синекдоха, задача.

Jumladan, metafora, metanimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik singari ma'no ko'chish turlarini ko'rsatish mumkin. Shuni aytish kerakki, tilshunoslikda til zahiramizning bor kuchi, jozibasi mana shu vositalar yordamida yuzaga chiqadi va tilimizning boyishiga xizmat qiladi.

Rimning mashhur notiqi Kvintilianning ta'kidlashicha, "metaforaning ortiqqligi tinglovchining diqqatini bezovta qiladi. Nutqni taqlid va topishmoqqa aylantiradi"[1]. Haqiqatda, har qanday narsaning ortiqchasi asliyatni yo'qotadi. Olim Sh.Rahmatullayevning ta'kidlashlaricha, "Biror predmet, belgi, harakatning nomi boshqasiga o'zaro tashqi o'xshashlik (shakli, rangi kabi jihatlari bilan) asosida ko'chirilsa, metafora yo'li bilan ko'chirish deyiladi. (yunoncha "metaphore" – "ko'chirish") [2].

Tilshunosligimizda bu kabi troplarning keng imkoniyatlarini yaratishda badiiy matnlar alohida ahamiyatga ega. Xususan, Abdulla Oripov she'riyatida metafora o'zgacha ruh berib, tilning imkoniyatlarini yanada yaqqol aks ettiradi. Bu bilan shoir badiiy adabiyot ravnaqiga hissa qo'shibgina qolmay tilimizning ichki imkoniyatlarini, serjiloligini, boyligini ko'rsatib til rivojiga ham ulkan hissa qo'shdi. Abdulla Oripovning o'zi aytganidek, "ma'lum did va saviyaga ega bo'lmagan ijodkor adabiyotning birinchi elemetni bo'lmish tilning o'zidayoq kimligini bildirib qo'yadi". Demak, shoir adabiyot dunyosiga kirishda tilning mavqeyi muhim ekanligini ta'kidlaydi. Tildan to'g'ri foydalanilgan asar haqiqiy asar maqomidadir. Bu uchun esa tilning imkoniyatlaridan o'z o'rnida foydalanmoq lozim. Shoir badiiyatida qo'llangan turli tasviriy vositalar va iboralar o'zgacha bir ma'no uyg'unligini, xalqchillikni vujudga keltirgan.

Abdulla Oripov ijodidagi metaforalarga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, aynan metaforalar yuqorida aytib o'tilganidek, o'zgacha bir tizimning yaratilishi-yu, kuchli dinamik ruhning vujudga kelishiga xizmat qilgan. Ijodkor umrining so'nggi yillarida yozilgan "Yoshlik" she'rida metaforaning quyidagicha namunasini ko'rishimiz mumkin.

*Yo'l chetida,
Daryo bo'yida
Turar edim aso tayanib.
Hayot isini tuymoq avjida,
Dunyolarga boqsam deb qonib. ()*

Ushbu misalorda keltirilgan "Hayot isi" birikmasi metafora sifatida qo'llanib, shoir biz uchun mavhum bo'lgan hayot isini tuyishga harakat qilmoqda. Bizga ma'lumki, hayot o'zidan ifor taratmaydi, balki xushbo'y ifor taratish gulga yoki biror hid taratish xususiyatiga ega bo'lgan narsaga xos. Bu kabi narsalar ifori bilan kishini o'ziga jalb qilgani, qancha bo'yidan tuysangda, kamligini his qilganingdek, "hayot isi" ham shunday seni o'ziga tortaveradi. Demak, bu misralar metaforaning belgi o'xshashligi asosida ko'chishiga misol bo'la oladi.

Shoir "Iymon" she'rida ham metaforalardan unumli foydalangan, hatto, bir bandning o'zidayoq uch o'rinda metaforaning qo'llanishini ko'rishimiz mumkin.

*Afsus dunyo meni aldadi boplab,
Oldimg'a tashladi yolg'onni qoplab.
Ekkan daraxtlarim ko'sam hisoblab
Yarmini beshik qildi, yarmini dor qildi. ()*

Inson va hayvonlar, umuman, jonli narsalarga xos bo'lgan xususiyat "jonsiz" dunyoga ko'chirilmoqda. Dunyo jonlanib, insonni aldashga tushadi. Uning oldiga yolg'onni qoplab tashlaydi va yana beshik, dor yasaydi. Ushbu misralardagi metaforalar harakat o'xshashligi - jonli narsaga xos xususiyatlarning ko'chirilishi asosida vujudga kelmoqda.

*Hali tugamaydi, bu achchiq qismat,
Kimdir nom talashib aqldan ozar.
Eng mudhishi o'tmay sal fursat
Seni mavh etganlar xotira yozar. ()*

She'rdagi keltirilgan "achchiq qismat" birikmasi metafora sifatida keltirilgan. Chunki hech kim hayotning ta'mini totib ko'rmagan. U shunchaki bir taomga nisbat. Taomdagi achchiqlik yuzni burishtirib, og'izni kuydirgani singari hayotdagi qiyinchiliklar-u to'siqlar yuzingni burushtirishi, yeyayotgan oshingni zahar bo'lishiga sabab bo'ladi. Bu esa o'zini "achchiq qismat"da namoyon qiladi. Achchiq qismat metaforasi belgi o'xshashligi asosida ko'chirilgan bo'lib, bir narsaga xos xususiyatning boshqasiga ko'chirilishi natijasida vujudga kelgan.

Abdulla Oripov nabirasi Oybekka bag'ishlab yozgan "Yangi avlod" she'rida ham metaforaning betakror namunasini uchratamiz.

*Dovullar umringni sovurdi butun,
Yetmadi bardoshing, sabr toqating.
Endi bari-birdir kunduz bilan tun,
Endi ortiqchadir qo'lda soating. (8-jild, 139-b.)*

Dovullar-u shamollar qum barhanlarini yoki xazonlarni sovrishi mumkin. Ammo umrni butkul yo'qsizlikka sovrishi dovullarga xos emas. Demak, bu o'rinda ham metafora harakat o'xshashligi asosida vujudga kelgan.

Shoir shunchaki, asarning qimmatini, ta'sir kuchini oshirish uchun metafora qo'llab ketavermagan. She'rning butun zalvorini ko'rsatish, kulminatsion nuqtasini ta'minlash vazifasini ham metaforaga yuklaydi. Ha, shoir metaforalardan so'z o'yinini vujudga keltiradi. Shoirning "Tug'ilish" she'rida ushbu holatni kuzatishimiz mumkin.

*Men bunday kaslarni topmadim o'ylab,
She'rni ham yozmadim aslo atayin.
Qofiya ustida yetmish yil o'ynab,
Bir jiddiy gapni ham endi aytayin. ()*

O'ynash mumkin insonni yukini ko'taradigan narsalar ustida, ammo bizning buyuk qalamkashimiz qofiya ustida o'ynamoqda. Bu metafora o'zgacha o'xshashlik asosida yangicha hissiyot uyg'otmoqda.

Har bir yozuvchi, shoir ijodida metaforalar qo'llashga harakat qiladi. Abdulla Oripov mavjud metaforalarni she'riy misralarda qo'llabgina qolmay, yangi-yangi, individual metaforalar o'ylab topadi:

*Hayot – juda katta ummon bilmaydi sarhad,
Shu jumladan, xushomadning yo'q uchi-keji.*

Shoirning "Maslahat" she'ridan olingan ushbu misralarda "hayot-ummon" ga metafora deb qarashimiz mumkin. Ijodkor nazdida "hayot" – ummon singari jo'shqin va to'xtovsiz. Bu misralarda hayot ummonga o'xshatilayotgan bo'lsa, keyingi misralarda she'riyat olami do'konga qiyoslanmoqda.

*Alisher ellik yil do'konni ochib,
Qulf-kalit qilib ketganmikan yo.
Saroyda she'riyat durlarini sochib,
Ado qilganmikan yoki Boyqaro.*

Bir bandda uch marotaba metafora qo'llash asarning zalvorini oshirmoqda. She'riyat do'konga o'xshatilishi, she'riyatning durlari-yu, uni Husayn Boyqaro ado qilganligi orqali isbotlab bergan. Shoir hajviy bir she'rida butun bir she'rni metafora asosiga qurgan:

*...maqto'v kutar qushdan ham,
Mening aziz qavmim – ziyolilarim. (8-jild, 116-117-b.)*

Maqto'vni faqat zaboni bor inson bolasidan kutish mumkin. Ammo bizning maqto'vni sevuvchi, uni eshita yaltoqlanuvchi "ziyolilarimiz", hatto, qushlardan ham olqish, maqto'v kutishadi. Shoir o'zidagi bor achchiq kinoyani metafora asosida ko'rsatadi. Shu she'rning so'nggi misralarida ham metaforaga ko'chirilgan kinoyani ko'rishimiz mumkin.

*Ba'zida unvonlar hidini sezib,
U darrov o'zini ramkaga solar.
Goho dabdurustdan kallasi qizib,
Nobel mukofotini talashib qolar.*

Bu misralarda qoʻllangan metaforalar shunchaki oʻxshatish boʻlibgina qolmagan. Shoir unga “yuk beradi”. Hissiyotning eng sokin chertiladigan ohanglarini ham metafora bilan ifodalashga harakat qiladi.

Xullas, metaforaga shunchaki bir oʻxshatish sifatida emas, balki u bir oʻzgachalik, shoir yuragidagi kechinmani ifodalashdagi individuallikdir. Abdulla Oripov ham man shu oʻzgachalikni qalamiga singdira olgan ijodkorlardandir. Shu bois uning sheʼrlari davr tanlamaydi, eskirmaydi. Bir soʻz bilan aytganda, shoir sheʼrlari qalbdan chiqqan sodda va samimiy va shu holda qalbga yetib boradi. Ijodkor taʼkidlaganidek, har qanday shoir tilidan foydalanish mahorati orqali oʻzligini namoyon qiladi.

REFERENCES

1. Yoʻldoshev B., Abdullayev D. Oʻzbek tilidagi polesemantik frazemalarni lugʻatlarda izohlash tamoyillari. – Samarqand: SamDU, 2013. – 146 b.
2. Yoʻldoshev M. Badiiy matn va yning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent: Fan, 2007. – 120 b.
3. Yoʻldoshev M., Muhamedova S., Saparniyazova M. Matn lingvistikasi. – Toshkent: Mumtoz soʻz. 2020. – 188 b.
4. Oʻrinboyev B. Oʻzbek tili soʻzlashuv nutqi masalalari. – Toshkent. 1974. 168 b.
5. Shodiyev R. Ruhiyat rassomi. – Toshkent: Fan, 1997. – 106 b.
6. Shomaqsudov A., Rasulov I., Qoʻngʻurov R., Rustamov H. Oʻzbek tili stilistikasi. – Toshkent: Oʻqituvchi. 1983. – 362 b.
7. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy oʻzbek tili. – Toshkent: Universitet, 2006.
8. <http://osnovaschool.ru>